

BUXORO XATTOTLIK MAKTABINING HOZIRGI YORQIN VAKILLARI

Hoshimova Dilshoda Baxshillo qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn instituti
Miniatyura va Xattotlik yo'nlashi II kurs magstranti*

Rezyume: Yurtimizda xattotlik sohasining o'rta asrlardan beri tutgan o'rni va uni rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar ko'pchilikni tashkil qilgan. Ushbu maqolada Buxoro xattotlik maktabi va uning faoliyati, Buxoro xattotlik maktabining hozirgi yorqin vakillari, Buxoroda xattotlik maktabining shakllanishida va dastlabki vakillari husnixatda mohir xattotlarning muxtasar hayot faoliyati haqida fikr yuritilgan bo'lib, hamda ular haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: xattotlik, qo'lyozma, husnixat san'ati, matbaachilik, risola, arab grafikasi, mahobatli xattotlar, me'morchilik sohalari, kitobat, dekorativ buyumlar.

Резюме: В данной статье каллиграфия, роль этой области в нашей стране со времен Средневековья и люди, внесшие большой вклад в ее развитие, бухарская школа каллиграфии и ее деятельность, нынешние яркие представители бухарской школы каллиграфии, Рассмотрены и подробно описаны становление школы каллиграфии в Бухаре и первые представители каллиграфов, владевших хуснихатом.

Ключевые слова: каллиграфия, рукописи, каллиграфия, полиграфия, брошюры, арабская графика, великолепная каллиграфия, архитектурные поля, книги, декоративные изделия.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq tariximiz va madaniyatimiz ildizlarini puxta o'rganish, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ishlar olib borilayotgani bejiz emas. Bu borada amalga oshirilgan salmoqli ishlar natijasida xattotlik san'atiga qiziqish ortib, yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Yaqin o'tmishdagi mustamlakachilik davrida unutilayotgan tariximiz, qadriyatlarimiz qatorida xattotlik san'ati an'analari ham fidoyi olimu ijodkorlarning sa'y-harakatlari tufayli qaytadan o'z qiyofasini tikladi.

Dastlab, "xattot" soziga ta'rif berib otsak, arabchada uning lug'aviy ma'nosi "xat yozuvchiga to'g'ri keladi. Istilo (ilmiy atama, termin) sifatida esa u kalligrafiya, ya'ni husnixat san'ati ustasini, kitob ko'chiruvchini anglatadi. Qadimdan to matbaachilik yuzaga kelgunga qadar butun boshli kitoblar xattotlar tomonidan ko'chirib chiqilgan, ularga naqshlar tushirishgan.

Shu sababli nafaqat bizning yurtimizda, balki mintaqamiz va umuman Sharq o'lkalarda xattotlik san'ati tobora rivojlanib, uning turli yo'nalishlari vujudga kelgan. Garchi hozirda, matbaachilik taraqqiy etganligi sababli, xattotlik kasb sifatida ilgorigidek saqlanib qolgan bo'lmasa-da, u Sharq yurtlarida san'at sifatida ardoqlanib keladi.

Buxoro amirligida shogirdlarga xattotlik san'atini o'rgatgan xattotlar ko'p bo'lgan. Ulardan, Mavlono Masjidiy Mulla Mansur Badaxshoniy, Muxtor Maxdum qozi Naimjon Maxdumning o'g'li, Abd ul-Halim Maxdum Shihob ad-din Maxdumning ukasi, Muhammad Rizo Namadiy, Mirzo Kichkina, Mirza Foxir, Mirzo Yunus Kitobiy, Muhammad SHarif Sadri Ziyo va boshqalar xattotlik san'atida nom qozonish bilan birga o'z maktablariga asos solganlar⁵³.

Xattotlik yozuvga nafislik qo'shadigan sohadir. Shuning uchun xattotlikka ham hunar, ham san'at maqomida qaraladi. Asrlar davomida saqlanib, sayqal topib kelayotgan xattotlik san'ati nafaqat arab, shuningdek, Osiyo xalqlari hayotida o'zining uzoq tarixiga ega.

Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyoda kitob bosish amaliyoti vujudga kelganiga qadar kitoblar qo'lyozma shaklida tayyorlanib, ular nusxa ko'chirish yo'li bilan ko'paytirilgani ma'lum. Bu mashaqqatli ish bilan xat ko'chiruvchilar, ya'ni xattotlar shug'ullanishgan.

Sayidnazar Labi Obiy e'tiborli kotiblardan bo'lib, xatni chiroyli san'at bilan yozishda Sayidnazar Nasafiyning iste'dodi ko'proqdir. Nastaliqni husnixat qoidasiga rioya qilib yozardi. Shuningdek to'g'ri va xatosiz yozadigan xattotlardan edi. U "Xatosiz ko'chiradigan kotib" deb shuhrat qozongan. Ko'chirgan qo'lyozmalarining soni 56 ta bo'lgan⁵⁴.

Hozirgi kunda samarali ijod qilib kelayotgan xattotlar salmoqlidir. Jumladan, Sharq xalqlari orasida shuhrat qozongan Muhammad bin Husayn at-Tibbiy, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashkadiy, Mir Ali Xisraviy, Munis Xorazmiy va Ahmad donish singari mashhur xattotlar zamonasida o'z husni xatlari bilan maktab yaratgan siymolardan hisoblanadi. Ular ko'chirgan kitoblar va xat turlari hali-hanuz tuganmas ilm sifatida dunyo olimlari tomonidan o'rganilib kelinadi.

Bizning davrimizga kelib, kitobat sohasi zamonaviy texnologiya imkoniyatlari asosida rivojlanayotgan bo'lsa-da, xattotlik san'ati an'analari rivojlanishda davom etmoqda. Boisi, xattotlik nafaqat kitobat, balki tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'tmishning moddiy va ma'naviy jumboqlarini usiz o'rganib ham, tiklab ham bo'lmaydi.

53 Muhammad Sharifjon Sadr-i Ziyo. Risolai xattoton. (Nashrga tayyorlovchi SH.Vohidov) – T.: "Universitet", 2004. – B. 256.

54 XX asr boshlarida Buxoroda kitob va kitob madaniyati tarixidan. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 34-35.

Qarshilik Sayidnazar Nasafiy nomi bilan Buxoro amirligida ikkita xattot o'tgan. Biri qarshilik Sayidnazar, ikkinchisi Sayidnazar Labi Obiydir. Ular tomonidan ko'chirilgan kitoblarning soni 300 dan ortiq bo'lgan. Xattotlar o'rtasida biror narsada shubha bo'lsa Sayidnazar Nasafiyning kitobatiga taqqoslab, tuzatib olganlar.

Mavlaviy Abdullo va Mavlaviy Rahmatullohlar esa Avaz Badal kotib Balxiyning o'g'illari bo'lgan. Bu ikki kotib Buxoroda e'tibor qozongan. Har birlarining ko'chirilgan kitobatlarining soni ikki yuzdan uch yuzgacha etgan. Bularning otasi Avaz Badal tomonidan ko'chirilgan kitobatlari 200-300 qo'lyozmadan kam bo'lmagan⁵⁵.

Salimjon Sobirjon o'g'li bolaligidan chapaqay bo'lsada, xushxatligi bilan nom chiqargan. Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olayotgan vaqtlari fors tili muallimi, mashhur xattot Xasanxon Nizomni uning arab grafikasiga asoslangan fors yozuvida ham o'ta chiroyli yozayotganini ko'rib, unga xattotlikdan saboq bera boshlagan.

Biroq u paytlari bu ishlarni oshkora amalga oshirib bo'lmashligi sababli 1989-yilda Davlat tili haqidagi qonun chiqqanidan so'nggina Salimjon aka oz iste'dodini to'laroq namoyon eta boshladi. Ko'p yillar malaka oshirish institutini arab yozuvidan Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida xattotlikdan ta'lim berdi.

Xattot Salimjon Badalboyev, u 1970 yili Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini tugallagan. Qariyb 40 yildan buyon xattotlik bilan shug'ullanadi. 1995-yildan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xattotlikdan dars bergan. Ana shu ilmga doir bir qancha qo'llanma va risolalar chop ettirgan.

Xabibulloq Soliq xattot va mudarris (Xabibullo Ismailovich Saliyev) 1949 yili Tojikistonning Vaxsh viloyatida tug'ilgan. 1968-1973 yillari Buxorodagi Mir Arab madrasasida, 1973-1975 yillari Toshkentdagi Namozgok oliy madrasasida, Oliy diniy maktab (hozirgi Imom Buxoriy nomidagi islom instituti)da tahsil olgan.

1975-1982 yillari O'zbekiston ta'mirlash va loyihalash ilmiy-tekshirish institutida faoliyat yuritib, Markaziy Osiyoning eng yirik tarixiy me'moriy obidalarini tiklanishi va ta'mirlanishiga hissa qo'shdi. 1982-1987 yillari lordaniya universitetining shariat fakulteti bakalavr diplomi bilan tugatdi.

Islom Muhammad - Mamatov Islom Odinayevich 1965-yil 8-mayda tug'ilgan. Yoshligidan naqqoshlik va rassomlik to'garaklariga qatnashib kelgan. Xattotlik san'atini ustoz Xabibulloq Soliq tarbiyasida bo'lib o'rgandi

55 Muhammad Sharifjon Sadr-i Ziyo. Risolai xattoton. – B. 258.

va birgalikda bir qancha me'moriy yodgorliklar yozuvlarini tiklash, qayta ko'chirish va ko'rgazmalarda ishtirok etib malakasini oshirdi.

1989-1993 yillarda Buxoro shahridagi Mir Arab maxsus islom madrasasida o'qidi. 1993-1998 "Imom al-Buxoriy" nomida Toshkent Islom oliygohida tahsil oldi. 1998 - yildan hozirgacha Toshkent Islom oliygohi va ko'kaldosh maxsus islom madrasasida xattot mudarris bo'lib kelmoqda.

Abdulqur Razzoq Buxoriy - 19 avgust 1950 yilda Buxoroda tug'ilgan. Ko'p yillar O'zbekiston musulmonlari idorasining Buxoro viloyati bo'yicha vakili lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Mir Arab madrasasi mudarrisi, islom madaniyati sohasi arbobi, tarixchi, manbahunos va san'atshunos. 1975 yilda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom oliy maktabini bitirgan. Ayni paytda Buxoro viloyatining nafaqadagi faxriy imom xatibi.

Xattotlik va tasavvufshunoslik diniy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy risola kitoblar va maqolalar, Sharq tibbiy manbalari asosida tayyorlangan dorishunoslikga oid qo'llanmalar muallifi hamda mumtoz adabiyot bilimdoni. Sharq xattotlik san'ati jozibasining mohir xattoti va minglab shogirdlarning sevimli ustoz.

Buxoro shahrining xo'ja Zayniddin guzari azaldan ulug' allomalarni tarbiyalagan mavze sifatida tanilgan. Abdulqafur domla 1968- yili Mir Arab madrasasiga o'qishga kirdi. Madrasada unga marhum Shahobiddin kori domla, marhum Muxtorjon domla, namanganlik hoji Abdulatif domla, Nurulloxon korilar saboq berishgan. Harbiy xizmatdan qaytgach, 1974-1975 yillar mobaynida Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutida ta'lim oldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yozuv insoniyat hayotida misli ko'rilmagan yuksalishlar paydo qilgan mo'jiza o'laroq, muloqot va ma'lumot yetkazishning muhim vositasi, hayotiy zarurat hisoblanadi. So'z fikrning aksi ekan, yozuv esa so'zning ramzidir. Arab yozuvining dunyodagi boshqa xalqlar yozuvidan farqli jihati shundaki, unda yozuvning go'zalligiga alohida e'tibor beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammad Sharifjon Sadr-i Ziyo. Risolai xattoton. (Nashrga tayyorlovchi SH.Vohidov) – T.: "Universitet", 2004. – B. 256.
2. Muhammad Sharifjon Sadr-i Ziyo. Risolai xattoton. – B. 258.
3. Shoyokubov Sh. Zamonaviy O'zbekistan miniatyurasi ustalari. // J. «San'at" - №2. - Toshkent, 2015.
4. XX asr boshlarida Buxoroda kitob va kitob madaniyati tarixidan. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 34-35.